

Yoz oxirlab, avgust oyoq uzatdi. Kuz shamollari esa boshladi. Tong havosi salqin tortdi...

Kamina mehnat ta'tiliga chiqdim. Avvaldan o'ylab qo'yan rejani amalga oshirishga fursat yetdi. Xorazmga ketaman!

...Vokzal menda hamisha ayricha tavsurot uyg'otadi. Gavjum zalning tirband o'rindiqlaridagi yo'lovchilarini kutish daqiqalariga tutashgan ko'rinas bir rishta bog'lab turadi, go'yo. Temir izga poezd qo'yilishi hamona vokzal sahnida besaranjom olomon to'lqini paydo bo'ladi. Kim-kimga uringan, kim-kimga suringan. Hamma o'zini vagonlarga uradi. Hamma manziliga shoshiladi. Hozirgina bo'shab qolgan o'rindiqlarni esa yo'lovchilarining boshqa oqimi band etadi. Vokzalda hech qachon o'rindiqlar bo'shab qolmaydi - birov ketadi, boshqa birov keladi. Inson hayoti ham shunday; maqsad-muddaongni aniqlab manzilga intilmasang, bir joyda uzoq qolib ketasan, boshqalarga halal berasan. Vokzalning hayotdan afzal jihatli bor; shohu gado, boyu kambag'al bir maqomda - yo'lovchi! Bor-yo'g'i ular poezdini kutmoqda. Hayotda esa... hayotda kishilar tabaqlashadi, ular vaqt soati yetgach umr poezdi kelib ketishlarini sezsalarda, hayot vokzalidan odamiylik chiptalarini xarid qilishni unutadilar.

Ko'p aljirab boshingizni og'ritmayin. Mana, mening poezdim ham yetib keldi. Birinchi yo'lga, shundoq vokzal sahniga taqab qo'yildi.

Peshinga og'ayotgan oftob taftidanmi yoki vokzalga kelib to'xtagan vagonlar paydo qilgan epkin ta'siridanmi temir g'ildiraklarga yopishgan-qotgan qoramoy hidi dimoqqa urildi.

Vokzalga kelmaganimga ham ancha yillar bo'lganini his qildim. Aniqrog'i, g'ala-g'ovur vokzalgagini xos bo'lgan hayot talabalik yillarimni yodimga soldi: "ToshkentB" Andijon poezdi... Shanbada kuzatishlar, seshanbada kutib olishlar, eh-eh, qancha dardu iztiroblarimizga, ko'z-yoshlarimizga guvoh bu vokzal. Yoshlik. Romantika. Sevgi!

Vokzalda yo'lovchi gavjum. Test sinovidan o'tgan aksariyat abituriyentlar uy-uylariga qaytishayapti. Vagon eshigi oldida odam kamayishini kutib ancha chetroqda turgan nazoratchiga bir-ikki yo'lovchi nimalarnidir tushuntirishadi. Ko'ngli iymagach, unga tavoze bilan yalinib-yolvorishadi.

- Ana, plaskart vagonga boringlar! Mumkinmas, men ortiqcha odam ololmayman.

Poezd jila boshlagach, eshikka tirmashdim.

- Chiptangiz bor ekan, nega shu paytgacha anqayib turibsiz, - nazoratchi o'dag'aylab yo'l berdi. - To'rtinchi kupega boring.

Qiya ochiq kupe eshididan bosh suqib, ichkariga razm soldim. Taqdiriga men hamrohlik qilish bitilgan kупedoshlar ham yalt etib qarashdi.

Lahzada ularga ko'z yogurtirdim. Tim qora sochini bir tutam qilib bog'lagan, katta-katta quralay ko'zlar porlab, oy balqqan ozg'in yuzidagi yoniq joziba har qanday kishini sehrlab qo'yadigan go'zal xilqat, uning yonida tabiatning yana bir mukammal ijodi - moviy ko'z, oltin soch, yoyday egik qoshlari chiroyli chehrasiga andak kibru havo baxsh etgan sohibjamol o'tiribdi. Bu ikki mo"jiza qarshisida o'zini noqulay sezayotgan ozg'in, qotmadan kelgan, qirra burun, chuvak yuziga toshgan o'spirin vagon oynasi tomon surilib menga joy berdi.

- Mumkin bo'lsa, ukaginam, o'rningizdan tursangiz. Yuklarimni o'rindiq tagiga qo'ysam.

Novcha yigitcha o'rnidan turdi. Yukto'rvani joylab, u-bu yegulik solingen yelim xaltani o'rindiq ustiga qo'yib, uning yoniga cho'kdram.

Shovullab yelkasiga tushib turgan tilla sochlari ortga taragan moviy ko'z juvonning keng, silliq peshonasidagi pardoz-andoz ko'molmagan vaqt chiziqlariga boqib uning yoshi o'ttiz beshning nari- berisida deb tusmolladim. Vagon derazasiga charos ko'zlarini qadagan, bizning boru yo'g'imizga e'tibor bermagan xushro'y qiz esa men to manzilga qadar shu alfozda ketaman deganday go'yo boshqalarga parvo ham qilmasdi. Yigit qo'llarini ko'ksiga chalishdirib, boshini devorga tirab, ko'zlarini chirt yumib olgan.

Moviy ko'z juvon zimdan ko'z qirini tashladi. Bu tabiiy holat. His-tuyg'ularini jilovlay bilgan, husnu-latofatiga ishongan mag'rur ayollar odatda shunday qilishadi. Kamina ham birovdan kam emas: bo'yinbog' taqib, kostyum-shim kiyib olgan. Savlatdan ham nolimasak bo'ladi. Biroq farishtaday go'zal ayol qoshida mum tishlab, iyak ko'tarib o'tiraverish har holda odobdan bo'lmasa kerak. Erkakchilikka ham to'g'ri kelmas-ov. Shoirimiz aytadilar-ku: "Go'zallikning oldida axir cho'kka tushgan hatto xudolar..." o'zimizga bino qo'yib qaerga ham borardik.

- Ruxsat bersangiz, o'zimni tanishtirsam, - dedim ruschalab va ayolga dadil boqdim.

Derazadan ko'z uzmay ketayotgan qiz tuyqus yelka qisib piqillab kulib qo'ysi-da, ayolga qosh uchirdi. Juvonning ham chehrasiga tabassum yoyildi.

Bemalol. Qani, tanishaylik-chi?

Juvon shu qadar sokin va bamaylixotir gapirdiki, yuziga samimiy ifoda qalqiganini sezdim. Qiz hamon qiziqsinib qarab turardi.

- Yozuvchiman. Urgenchga, aniqrog'i QoraqalB-pog'istonga ketayapman. Do'stlarim chaqirishgan. Sayru sayohat deganday.

Ayol taajjublanib lab qimtidi, hozir kulib yuboradiganday. Ko'zlarini ma'noli boqdi.

- Yozuvchiman deng. Nima balo, yozuvchilar ismini aytib tanishmaydilarmi? Ha, mayli, o'zim aytqaqolay. Ismim - Irina. Irina Nikolaevna! Bu mening qizim - Mariya. Moskvada yashaymiz. Biz ham Urgenchga, aniqrog'i, Xivaga sayohatga borayapmiz. Odamoviroq chog'i, qiz ensasi qotib yuzini tag'in vagon derazasiga burdi.

- Qizingiz talaba bo'lsa kerak... To'g'ri topdimB-mi? dedim ataylab.

- Ha, talabaman. Judayam to'g'ri topdingiz. Balki qaysi mavzuda diplom ishi yozayotganimni ham bilarsiz? - dedi qiz kesatib.

Tili zahargina ekan. Aftidan u meni xushlaB-mayotgandi. Kim bilsin, balki onasi bilan suhbatlashishimni istamayotgandir.

Oraga jimlik cho'kdi. Yonimda mumiyolaganday qotgan yigitga jon kirdi, bopladi-ku, deganday cho'zib hushtak tortib qo'ydi. U ham xuddi qiz kabi go'yo vagon derazasidan zipillab o'tayotgan simyog'ochB-larni sanagan ko'yi o'z o'yiga g'arq bo'lib o'tirardi. Ayol bosh chayqab qo'ydi. Qizning sharttakiB-ligidan xijolat chekkani shundoq sezilib turardi.

- Xafa bo'l mang. Mashaning bugun kayfiyati yo'q. Urgenchga samolyotda uchmoqchi edik. Kun bo'yi ovora bo'ldik, chipta ololmadik. Joy yo'q deyishdi. Urgenchga odam ko'p ucharkan, aksariyati sayyoqlar. Toshkentni yaxshi bilmaymiz. O'zbekistonda birinchi marta bo'l shishimiz. Poezdda ketmaymiz, deb rosa xarxasha qildi. - Ayol kulib qiziga qaradi. - Bu yerning odamlari yomon, ikki kunlab poezdda yurib bo'larkanmi, deb oyoq tirab turib oldi.

- Nega bu yerning odamlarini yomon deydi. Unday emas, bizning xalqimiz mehr-oqibatlari, yuvosh, kamtar-kamsuqum xalq. Mehmondo'st xalq. Masha, siz o'zbeklarni yaxshi bilmaysiz-ku, to'g'rimi? - Qizga savol nazari bilan qaradim.

Mashaning qoshlari chimirildi. Qizning chehrasida nimadandir hadik, sarosima zohirB-ligini, botinida xavotir qalqib turganini shundagina payqadim. Men bu holatni begona joyda ayrim kishilarda ro'y beradigan bezovtalikka yo'ydim. Qizning javobi qisqa bo'ldi:

- Oyim menga o'zbeklar haqida juda-juda ko'p gapirib bergan...

- Oyingiz sizga biz haqimizda nimalar degan?

Qiz bazo' tabassum qildi. Istehzo bilan lablarini qimtib, qosh uchirdi. O'lay agar uning bu qiligi o'ziga juda yarashiqli, ko'proq yosh qizaloqning araziga ham o'xshab ketardiki, shu bois qizning pichingu-pisandasini menga og'ir botmadni.

- Oyimning o'zidan so'ray qoling. Yaxshisi men uxmlayman. Bugun rosa charchadim.

Qiz o'rnidan turib yuqori o'rindiq to'shamB-chisini tekislay boshladi. Xuddi xorazmlik raqqosalarday qora soch, qora qosh, tim qora ko'zlari porloq, yoniq chehra, xipcha bel bu qiz epchillik bilan kopening yuqori o'rindig'iga ko'tarildi.

Shu paytgacha yonimda miq etmay ketayotgan, biroq aminmanki, o'zini beparvolikka solib jamiki gap so'zlarni jon qulog'i bilan tinglab o'tirgan beso'naqay yigitni tirsagim bilan turtdim. Yigit menga o'girilib qaradi.

- Novo deysiz?

- Isming nima?

- Odamboy.

- Xorazmdanmisan?

- Hovvo.

- Odamboy, uka. Iltimos, choy damlab kel. Yurtingga mehmonlar borayapti-yu, sen uyqusirab o'tiribsan...

Odamboy tushmagur ham quvgina ekan, gapi shu bo'lidi:

- Choy bo'lsa choy-da. Lekin memonlar kofe ichaB-jakB-ka o'xshaydi. Yoshulli, men sizni donib durupB-pan. Siz televizorda chiqasiz. Yozuvchisiz. Lekin memonlar donishmadi. Qisinmang. Moskvaning televizorida chiqsangiz donishar balki...

O'zimni kulgidan zo'rg'a tiydim. Odamboy beso'naqay gavdasini sollantirib kупedan chiqdi. Irina sochlarni uzun, chiroli barmoqlari bilan tuzatgan bo'lidi. Yurak yutib uning moviy nigohlariga tik boqdim. Bu moviy ko'zlar qa'riga kishining qalb torlarini chertadigan mungli bir ohang singib ketganini his qildim. Bilmadim, menga shunday tuyuldi. Ayol o'zini beg'am, betashvish ko'rsatishga urindi - yuziga tabassum yoyildi:

- Xo'sh, nega tikilib qoldingiz, muhtaram yozuvchi? Hanuzgacha ismingizni ham aytmaingiz... Mayli, aytmay qo'ya qoling...

Shunisi yaxshi - menga sizni Yozuvchi deb atash yoqib qoldi.

- Sizga yoqqan bo'lsa, men roziman. Demak, ismim - Yozuvchi!

Ikkovimiz ham kulishdik. Men yonimdag'i yelim xaltani olib, ichidan u-bu yegulik non, bir bo'lak qazi va kolbasa olib, yemak taxtaga qo'ydim.

- Birgalikda tamaddi qilsak. Sizni bilmadim-u, mening qornim ochdi.

- Men ham ertalabdan beri tuz totmadim. Buning ustiga Mashanining xarxashasi jonimdan o'tdi. Siz xafa bo'l mang, u yaxshi qiz.

- Hechqisi yo'q, yoshlikda bo'ladi. Yoshlikni tushunish kerak. Yoshlikni tan olish kerak. Ko'z tegmasin, qizingiz chiroli ekan.

Lekin sizga o'xshamaydi. Bizning o'zbek qizlariday go'zal. To'g'ri, siz undan ham go'zal, yosh, judayam go'zalsiz. IkkovinB-giz ikki xil olam...

Mulozamat qilaman deb, xol qo'ymadimmikin, degan hadik bilan ayolga qaradim. Xayriyat, qiyofasida o'zgarish sezmadim, aksincha Turgenev ta'biri bilan aytganda rusning maqtovga moyil tanti ayollariday charaqlab kuldji.

- Irina Nikolaevna, ha-ya, nima desam ekan, kamtarona dasturxonga qarang... Menda haligindan bor edi... Ellik-ellik olsak nima deysiz?

- Qanday bo'larkin? Siz o'zingiz ichmoqB-chimisiz?

Ayol o'zini erkin his qilayotganidan quvondim.

- Albatta. Charchoqni oladi. Yo'lida yaxshi ketadi, - dedim ishonch bilan.

Yelim xaltadan "Qoratov" arog'idan olib dasturxonga qo'ydim. Ayol qiziqsinib qaradi.

- O'zbek arog'imi bu?

- Ha, Nukus arog'i. Zo'r aroq. Men hamisha shunB-dan ichaman. Safarga chiqsam yonimda olvolaman.

- Mayli, o'zbek arog'ini ham tatib ko'raylik-chi.

Irina o'rnidan turib o'rindiq tagidan katta charm sumkasini titkiladi. Bejirim shisha idishni olib dasturxonga qo'ydi.

- Manovi qo'l bola qilib tayyorlangan gazakbop qo'ziqorin. Mazasini tatib ko'ring.

Men yemak taxtada to'nkarilib turgan paxta gulli piyolalarni o'nglab, to'latib aroq qo'ydim. Irina chiroli shisha idish qopqog'ini burab ochdi.

- Aybga buyurmaysiz, sanchqi yo'q. Shuning uchun qo'ziqorinni qo'l bilan olishga to'g'ri keladi.

U uzun chiroli barmoqlarini qaychi qilib oq tugmaday qo'ziqorinlarni olib non ustiga qo'ydi.

- Qani, oldik. Sizning sog'ligingiz uchun ichaB-miz, - dedim.

Irina jilmaydi. Biz piyolalarni teppa-teng ko'tarib qo'ziqorinni gazak qildik.

Shu tobda kupe eshigi ochilib Odamboy kirib keldi. Qo'lida choynak. Shishaga ko'zi tushib Irina ikkimizga angrayib qaradi.

- Choynakni qo'y. O'tir, Odamboy, - dedim unga. - Irina Nikolevna, tanishing, bu yigitning ismi Odamboy, - Irina bosh irg'adi. Odamboy yonimga cho'kdi.

- Yoshulli, tashkil dim ajoyib-ku. Qoyil sizga.

- Dim ajoyib, dim ajoyib, - dedim men ham kesatib. - Odamboy, manovi qazi hamda kolbasani nima bilan kesishni bilmay boshimiz qotayapti.

- Hov, shunga bosh qotirib netasiz. ProvodB-nikdan pichoq keltiraman.

Yigit o'rnidan turdi.

Men yana piyolalarga quydim.

- U qayoqqa ketdi?- deb so'radi Irina yigitB-ning ortidan qarab.

- Hozir keladi. Qani, olaylik.

- Nima uchun ichamiz?

- Tanishganimiz uchun. Umuman, nima deyishga ham hayronman.

- Axir yozuvchisiz. Biror gap o'ylab toping, - ayol ma'noli jilmaydi.

- Inson yuragi ummon. Shu ummon qa'rida qanchalab sir-asror, undan ham ko'proq orzu-istiklar cho'kib yotadi. Yurak ummonida orzular to'lqin ursa inson botinida kuch-qudrat, yashashga ishtiyoq olovi yonadi. Shu olovning so'nmasligi uchun ichamiz.

- Oh-oh, qoyil. Ya'ni, muhabbat olovining so'nmasligi uchun ichamiz, demoqchisiz...

- Balki.

Yana kalovlandim. Ayol qo'lidagi piyolaga termulib o'yga cho'mdi.

- Ha, muhabbat olovi, muhabbat olovi... U so'nmaydi. Biroq insonni yoqib kul qiladi.

Ayol hadik, shikasta ohangda go'yo o'ziga o'zi gapivardi. Ko'ngil yarasining og'riqlari bir zumda yuziga qalqib chiqqan, bu azobga dosh berolmay ko'zlarini chirt yumib oglanga o'xshardi. U piyolani dast ko'tarib bo'shatdi, qiyofasida lahzada sodir bo'lgan horg'inlik o'rnnini yana tabassum egalladi. Tund osmonda bulutlarni yorib quyosh charaqlagani kabi bu ayol ham hayotiga ko'lanka tashlagan taqdir iztiroblarini irodasi in'ikosi bo'lmish yoniq tabassum bilan mahv eta olishini, shu fazilati bilan ko'pchilik makkor va tulkisifat ayollardan farq qilishimi payqadim. Uning samimiyatida g'ubor yo'q edi.

Kupeda yana Odamboy paydo bo'lди. Qo'lida pichoq, ikkita taqsimcha.

- Yashavor, yigit, bu ishing besh! Ke, yonimga o'tir, inim.

Odamboy qazi hamda kolbasani parraklab kesib taqsimchalarga joylab, tavoze bilan Irina Nikolaevnaga yaqin surib qo'ydi. Ayol tashakkur bildirgan bo'lib bosh qimtidi.

- Bu nima? - dedi qaziga ishora qilib.

- Bumi, bu qazi. - Qanday tushuntirsam ekan degan alfozda taraddudlandi Odamboy. So'ng, menga qarab: - Yoshulli o'rischaga no'noqman, o'zingiz gaplang, - dedi.

- Ot go'shti bu, qazi! Ot go'shtidan maxsus tayyorlanadi. Sizlarning salangizdan zo'r bu, - dedim Irinaga. - Qani, Odamboy inim, Irina opang bilan yana bitta-bitta olaylik. Sen ham ichasanmi?

- Yo'q, yoshulli. Menga duvri kemaydi... Ichmayman.

- Shundaymi. Ha, mayli. Irina Nikolaevna, Odamboy ham talaba, ichmaydi. Uni majburlamaymiz.

Piyolalarga yana qo'ydim. Irina qazidan tatinganday bo'lди. Odamboyimiz nafaqat odamoxun, oyoq-qo'li chaqqon, balki fahm-farosatl yigit chiqib qoldi.

- Yoshulli men uxlamasam bo'lmas, agar biror xizmat bo'lsa aytarsiz, - deb tepaga ko'tarildi.

- Shunday qil, inim, shunday qil. Bemalol dampingni olaver.

So'nggi qadahlarni ham bo'shatdik. Uning chehrasi yanada yorishdi. Sezayapman, Irinaning ham boshi qizidi. Menga gazak uzatdi. So'ng og'ir uf tortib o'rnidan turdi-da, yonimga kelib o'tirdi. Bir pas ko'zimga termulib turdi. Moviy nigohidan taralgan o't a'zoyi-badanimni kuydirib, yuragim chimillab og'riddi. Ayol tuyqus yelkamga boshini qo'yib titragan kuyi yig'lab yubordi. Men uning otash nafasini sezib, aqlu hushimdan ayrilib tosh qotib turardim.

- Bilasanmi, Yozuvchi, men... men... biz, - uning yelkalari titradi... - biz nega Xorazmga borayapmiz?

U endi zir qaqqash yig'lар, men esim og'ib nima qilishimni bilmasdim.

- Sen yaxshi odamsan, Yozuvchi... Meni kechir.

- O'zingni bos, Irina... Qizing uyg'onib qoladi. Odamboy uyg'onadi. O'zingni bos!

Irina biroz jimb qoldi. Og'ir tin olib o'rnidan turdi. Joyiga borib o'tirdi.

Shu payt tepe o'rindiqda nimadir dupirladi. Qiz g'ujanak bo'lib o'rindiqni mushtlayapti.

- Ayt, oyi, ayt! Dadamning o'zbek ekanligini ayt. Sen menga yigirma yildan beri allaqanday o'zbek haqida ertak so'zlashningni ayt. Sening yigirma yillik armoning, mening yigirma yillik azobimni ayt! Bu odam senga o'sha o'zbekni topib beradi.

Qiz nafrat bilan qichqirdi. So'ng teskari o'girilib chinqirib yig'lab yubordi. G'udrangan ko'yи Odamboy ham uyg'onib pastga tushdi. Yuragimdan nimadir uzelib ketdi. Hangu mang bo'lib qoldim.

Kupeda serrayib turgan Odamboy dam menga va dam Irinaga, dam yotgan joyida piqillab yig'layotgan Mashaga ajablanib qaradi.

- Novo to'polon, novo bo'lди?

Poezd navbatdag'i bekatga kelib to'xtadi. Tashqaridagi simyog'och chiroqlaridan taralgan nur kupe ichini yoritdi.

- Hech narsa bo'lgani yo'q. Xavotir olma, uka, iltimos, ma, manovi pulni olib bir shisha mineral suv olib chiq.

- Kerakmaydi. Pul kerakmaydi. Hozir opkelaman.

Irina boshini kaftlari orasiga olib mungli alfovza o'tiribdi. Qiz jimb qoldi. Odamboy suv olib keldi. Poezd jildi.

- Yot, yotaver, uka. Umringdan baraka top! Yaxshi yigit ekansan...

Men piyolaga suv quyib Irinaga uzatdim. U boshini ko'tardi. Piyolaga uzatgan qo'li qaltirardi.

Vagon derazasidan xira yog'duga cho'mgan kupe hamda Irina ikkimizning aksimiz ko'rinaridi. Poezd ortda qoldirib ketayotgan nigoh ilg'amas kengliklarni tun pardasi qoplagan. Onda-sonda chiroqlari yoniq simyog'ochlar likillab o'tadi. Darichasi nur taratib turgan uylar, qishloqlar ortda qoladi. Poezd tun qa'rida yelday uchib yo'lning emas, balki vaqtning ham tanobini tortib azaliy qo'shig'ini bir maromda kuylab borayotganga o'xshaydi.

Oraga cho'mgan lahzalik sukutdan so'ng Irina boshini ko'tardi va xasta ovozda dedi:

- Yozuvchi, havo yetishmayapti, tanburga chiga qolaylik.

Lopillab chayqalayotgan vagonda uning ortidan ergashdim. To'zg'in tilla sochlari ochiq yelkasiga yoyilgan, adl qad, baland bo'yli, tizzasiga yetib-etmagan och-pushtirang kalta yubkasi, uzun va tirsillagan bo'liq sonlari, baquvvat oyoqlariga yarashgan so'nggi rusumdag'i baland poshnali oppoq tuflisi - bari-barisi meni batamom o'ziga mahliyo etib bo'lgandi. Iligi to'q. Savlatdor va maftunkor Irina huda-behuda dardini dasturxon qilaverib ko'nglingga qo'l soladigan, alaloqibat chuv tushirib seni laqillatib batamom ustingdan hukmronlik qilishga moyilligi baland uddaburon ojizalardan mutlaqo farq qilardi. U taqdir qimorida qartasini ochib o'ynaydigan ayollar xilidan edi. Bunday ayollarni Xolmirzaevning romantik hikoyalarida uchratish mumkin, deb o'yladim. Poezd o'qday uchar, tanburning ochiq derazasidan urilgan salqin shamol yozning batamom taslim bo'lganligini bildirar edi. Etim junjikdi. Ayol tanbur eshigiga suyanib, tun zulmatiga termulib qoldi.

- Chekishdan ber, - dedi u olis qorong'ulikdan ko'z uzmay.

- Marhamat...

Irina bosib-bosib chekar ekan, ko'zlarida yosh g'iltiladi.

- Bilasanmi, vaqt o'tgan sayin yuragim tobora og'irlashib boryapti, poezdning har bir taq-tuqi ko'krak qafasimga gurzi bo'lib urilayapti. Uning oldiga borayotib noto'g'ri qilayotgandirman, balki uni ko'rishga yuragim dosh berolmas, bardoshim yetmas, balki yuragim to'xtab qolar, ishonasanmi, nazarimda poezd oldinga yurmayotganday, poezdning atrofida yer gurillab aylanayotganday. Men uni ko'rishni, uning yoniga borishni tasavvurimga ham sig'dirolB~mayman. Eh, Xudoyim-ey, meni tushunayapsanmi, Yozuvchi?!

Irina hiqillab yig'lay boshladi. Uni nima deb ovutishni bilmasdim. Ortiqcha gap-so'z shundog'am borlig'i hayajon ummonida g'arq

bo'layotgan ayolning dardi-dunyosini ostin-ustun qilishi mumkinligini his qildim. Muhimi, men ayolni tushuna boshlagandim, uning qalb hissiyotlari charsillab yonayotgan alanga kabi vujudimni chulg'ay boshladi. Ayni tobda ayolni shu ko'yga solgan, uning taqdiriga so'nmas og'riq ato etgan kimsa haqida o'ylardim.

- Uni hali ham sevasanmi?!

- Uf-uf... Sevgi nima ekanligini ehtimol bilmasman... Lekin men uni shuncha yildan beri yuragimda olib yuribman. U taqdirimning bir bo'lagiga aylangan. Yuragimning qa'r-qa'rige singib ketgan. U men uchun xotira timsoliga, o'tmish timsoliga, qolaversa, bugunim timsoliga, ertangi kunim timsoliga, qizim, umrimning davomchisi timsoliga aylangan. Ehtimol sevgi deganlari shudir... Men uning yoniga otalik burchini da'vo qilib, talab qilib borayotganim yo'q. Uni bir ko'rish uchun, u hayotimda chindan ham bormi, yo'qmi, shuni yana bir karra go'yo isbotlash uchun borayotgandayman.

- Uni ko'rmaganingga necha yil bo'ldi?

- Yigirma yil. Roppa-rosa yigirma yil.

- Xat-pat yozib turadimi?

- Qayoqda. Kim bilsin, balki esidan ham chiqab-rib yuborgandir.

- Shaxsiy hayoting haqida so'rab-surishtiraB-yotganim uchun uzb... Sen u bilan qachon topishgansan. Boyadan beri "U-U" deysan, Uning ismi nima, qaerda yashaydi? Uni qanday topmoqchisan, balki yordamim tegib qolar...

- Xorazmda, Xivada yashaydi. Ismi - Roma! Yigirma yil ilgari Moskvadagi harbiy gospitalda tanishganman. Jarrohlik bo'limi boshlig'i edim. Uni olib kelishganda ahvoli juda tang edi. Kuragini o'q o'pirib ketgan, so'l oyog'i boldiri, boshining orqa qismini temir parchasi jarohatlagandi. Zambilda hushsiz yotardi. Gospitalda bir yil davolandi. Roma yang'rindor, baquvvat, daroz yigit edi. Qalin qoshlari ostidan mag'rur boquvchi ko'zlarida hayot sinovlariga dosh bergen yigitning metin irodasi shu'la sochib turardi. Men uning ko'zlariga qarashga dosh berolB-masdim. Qo'ng'irsoch, keng peshona, qirraburun, qalin mo'ylabi o'ziga yarashib turgan bu pahlavon yigitni har gal ko'rikdan o'tkazgani palataga kelsam oyoqlarim dag'-dag' titrab, ichimdan nimadir uzilib ketayotganga o'xshardi. Bir alfovza yotsa-da, palataga kirishim hamon o'zini o'nglashga tirishar, og'riqning zo'ridan aft-angori oqarib ketsa-da jilmayishga urinardi. O'lim jari yoqasidagi yigitning hayoti uchun tunlari mijja qoqmay ibodat qilib chiqardim. Irodasi mustahkam, hayotga intiluvchan yigit tasavvurga sig maydigan azob-uqubatlarga, ketma-ket qilingan jarrohlik operatsiyalariga dosh berdi. Tanasining kesilmagan joyi qolmadi hisob.

Oradan oylar o'tib yigit sog'aya boshladi. Jarrohlik bo'limi boshlig'i bo'lismiga qaramay ko'pincha tungi navbatchilikni o'z zimmamda qoldirardim, tonggacha uning yonida o'tirardim. Shu bir yil davomida men unga bog'lanib qoldim. Yigitning keksa onasi, ikkita singlisidan boshqa hech kimi yo'q edi. Dadam avtohalokatda o'lib ketgan derdi. Dahshat-a, oilada yolg'iz o'g'il, ota yo'q, shunday bo'lسا-da, u yoqqa harbiy xizmatga olib ketishgan. Men xizmatim davomida ko'p kuzatganman, u yoqqa ko'pincha otasi yo onasi yo'q yoki oilada yolg'iz o'g'il bo'lismiga qaramay kambag'al, beva-bechoralarning farzandlarini xizmatga yuborishgan. Boy-badavlat, o'ziga to'q oilalarining bolalari, ayniqla, rahbarlarning farzandlari, u yoqqa yuborilmagan.

- Irina men tushunmayapman. U yoqqa deganda qaerni nazarda tutayapsan?

- Afg'on urushiga.

- A-a-a?

- Ha. Afg'on urushiga. Roma ham yolg'iz o'g'il bo'la turib bosh egib indamay afg'onga ketavergan.

- U o'sha yoqda xizmatda bo'lgan degin...

- O'sha yoqda yaralangan. U yoqdan og'ir yaradorlarni to'g'ri Moskvadagi men xizmat qilayotgan gospitalga jo'natishardi.

- Men ham afg'onda bo'lganman, - dedim.

Irina yalt etib qaradi. Tanbur eshigining ochiq ko'zidan urilgan shamolda to'zg'igan sochlari uning yuz-ko'zlarini berkitib o'ynardi.

Irina bir zum menga termulib jum qoldi. Bosh chayqagan bo'ldi.

- Shunday de... Behudaga senga ko'nglimni yormayotgan ekanmanda-a?

- Kim bilsin... Sen Roma haqida gapiraB-yotganding.

- Ha, shunaqa... Roma sog'aygach bir yil Moskva yaqinidagi uyimda yashadi. Men unga turmushga chiqdim. Qizimiz Masha tug'ildi. Roma qurilish brigadasiga prorab bo'lib ishga kirdi. Uni tushunarB-dim: u o'z yurtini sog'inardi, yurtiga qaytishni xohlardi, kechalari uxlolmay yurib chiqardi. Biroq oriyatlari yigit edi, meni xafa qilishni o'ziga ep ko'rmasdi. Meni deb keksa onasi, singillari aziyat chekishini esa istamadim. Bunday ahvolda birga yashab bo'larmidi? Oxiri Roma yorildi - onamni, uyimni, Xorazmn sog'indim dedi. Qarasam lablari pir-pir uchayapti, ko'zida yosh qalqigan. Meni kechir. Sening oldingda qarzdorman... Sen menga ko'p yaxshiliklar qilding. Men seni yaxshi ko'raman, biroq nima qilay, onam, singillarimni o'ylab yurak-bag'rim ezilib ketayapti, dedi. Uning qarshisida yig'lab yuborishdan qo'rqedim. Indamay ko'chaga chiqib ketdim. Uyga qaytib keldim, divanda g'ujanak bo'lib yotibdi. Unga sezsdirmay tortmadan hujjatlarini oldim. To'g'ri aeroportga bordim. Romaga Toshkentga uchishi uchun aviachipta sotib oldim. Roma tungi reysda uchishi kerak edi. Qizimni opichlab aeroportga chiqdim. Xayrlashayotib ko'zlar jovidirab, ko'zlariga yosh quyildi. Meni, qizimizni bag'rige bosib uzoq yig'ladi. Uydagilarimni borib ko'raman, bir oz turib, albatta qaytaman, dedi. Biroq men uning qaytmasligini ichki bir hissiyot bilan sezib turardim.

- Demak, boshqa qorasini ko'rsatmabdi. Nomard ekan, - dedim cho'rt kesib.

- Nega unday deysan? Uni ham tushunish kerak.

- Nima bo'lgan taqdidayam erkakning ishini qilmabdi sening Romang.

- Dabdurusdan bunday hukm chiqarishing yaxshimas.

- Nima deyishimni xohlaysan?

- Hech nima dema... Romani muhokama qilmoqchi emasman. Aytmoqchimanki, vaqt o'tdi, yillar o'tdi, hayot tashvishlari, quvonchlari ichida ulg'ayib aqling ham to'lishib borarkan. Istaklarimni jilovlay olishga kuch topoldim. Biroq qizimning xohishi, uning qalbida tinchlik bermayotgan g'alayon o'tini bostira olmadim.

- Qizing...

- Ha, qizim... Dadasini ko'rish, aqalli bir marta ko'rish uchun hamma narsaga tayyor edi. Maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq Roma haqida so'rab-surishtiraverib holi-jonimga qo'ymasdi. Men gohida achchiqlanib, uni topish osonmas, Roma yashayotgan joyga borib bo'lmaydi, u yer juda olisda, odamlari badjahl, yovvoyi, deb qo'rqtardim. U bu gaplarimga gohida ishonardi ham. Haliginda o'zbeklarning nega yomonligini oyimdan so'rang, deb kesatganda shunga kinoya qilayotgandi. Moskva Davlat Universitetining tarix fakultetida uchinchi kursda o'qiyapti hozir. Ko'nglining tubida cho'kib yotgan dadasini ko'rish ishtiyoqini hech narsa bilan bosolmayapman. Bo'y yetgan qizni aldab bo'lmas ekan. Qizim hozir jizzaki bo'lib qolgan. Uning sog'lig'ini o'ylab

qayg'uraman. Jahli chiqsa men yovvoyiman, men yovvoyining qiziman deya chinqirib yuboradi. Taqdirimning qaltis o'yinidan ortgan dardlar kamlik qilganday, qizimning yuragidagi og'riqdan ham azoblanaman. U axir inson farzandi, uning ham qalbi bor, yuragi bor, orzu-armonlari bor, axir o'z otasini ko'rishni istaydi, uning qiyofasini xayolida o'zicha gavdalantiradi, qoni tortadi, tomiri tortadi, uni ko'rgisi keladi.

Irina o'ziga o'zi gapirardi. O'zimni noqulay sezdim. Tamaki tutatdim. Poezd ayolning dunyo yukidan og'ir dardini ortmoqlab, chinqirib tun qa'rida olg'a intiladi. Ha, poezd odamlarning dardu quvonchini olib intiladi, samolyotlar odamlarni dardi quvonchini olib uchadi, demak, yerda ham, ko'kda ham odamlar qalbining og'riqlari, shodliklari... Odamlar esa mana shu tushunchalar bo'lmanida hech kim, hech narsa bo'lib qolaverardilar.

- Irina...
- Nima deysan?
- Sen judayam chiroylisan.
- Qo'ysang-chi.. Men taqdir, zARBalariga chidab, qora kunlarga kirib, ochiq chehra bilan qarashga o'rgangan, sirtiga suv yuqtirmaydigan sho'tlik ayolman.
- Yo'q, sen chin ma'nodagi muhabbat timsolisan. Nima bo'lgan taqdirda ham Romang, Rahmat bo'ladimi, Ro'zimat bo'ladimi, Ro'ziqu yo Ro'zivoymi, kim bo'lganda ham baxtli odam ekan. Eh, essiz...
- Nega uh tortayapsan...
- Bilmadim.
- Sen meni to'g'ri tushungan bo'lsang kifoya. Xullas, boshingni og'ritib yubordim. Uh-uh, sovuq shamol urayapti. Yomg'ir yog'adimi deyman.
- Bizda kuzning o'rtalarida yog'ingarchilik boshlanadi. Hali erta.
- Baribirsov qotayapman. Qani, kupega ketdik. Yotar payti ham bo'lib qolgandir.

Men uning ortidan ergashdim. Kupega kirishimiz hamon qizi nimadir deb g'udrandi. Uyg'oq ekan, oyisini yana chaqib oldi. ...Urgench vokzalida meni do'stlarim Reyimboy og'a, Nurilla kutib olishdi. Ikkovi ham qadrdonim, ming yillik qadrdon deyishadi-ku, shunaqa insonlar toifasidan. Reyimboy og'a vohada taniqli tadbirdik. Boy-badavlat, biroq o'ta vazmin, bosiq, kamtar kishi. Beli baquvvatligini shundoq yuz ifodasi, o'zini tutishi, gap-so'zidan bilib olasiz. Xorazmning mashhur, biroq o'ziga bino qo'yagan boylaridan. Nurilla shundoqqina Urgenchning so'l biqinida, Amudaryoning narigi qirg'og'ida joylashgan Beruniy tumanidan. Bilsangiz kerak, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida Urgench bilan Beruniyini Amudaryo qirg'oqlarini tutashtirgan poton ko'priq bog'lab turadi.

Xullas, qadimgi Kat vodiysining Amu sohilida, ulug' alloma Abu Rayhon Beruniy bobomiz tavallud topgan yurt bo'yida tug'ilib o'sganidan hamisha faxrlanib yuradigan Nurillaboy ancha so'zamol, bir qop yong'oqday shaqir-shuqur, gohida yosh bolaligi hali ham qolmabdi, degan o'y bilan fe'li-xo'yi ochiqligi uchun unga havasim ham keladi. Nurilla tuman xalq ta'llimi bo'limi rahbari. Hayotning past-balandini ko'rgan, andavaning obdovini qaysi tomonidan olishni - vaziyatni silliqlashni, o'zidan katta rahbarlar oldida sixni ham, kabobni ham kuydirmaslikni yaxshi biladi, tavoze-tavbasi joyida.

Ikki og'aynim bilan ham quchoqlashib ko'rishdik. Ularni Irina Nikolaevna hamda qizi Masha bilan tanishtirdim. Do'stlarim rusning ikki go'zaliga mahliyo bo'lib bir pas angrayib turishdi. Bir-biriga ma'noli qarashdi.

- Zo'rsan-ku, bularni qayoqqa olib boramiz?

Nurilla pixillab kulib, so'ng do'mboq kaftini uzatib o'zicha tanishgan, o'z madaniyatini izhor qilgan bo'ldi. Irina kulib qo'ydi. Masha, kechagi Masha beparvo, bormisan yo'qmisani ishi yo'q, xuddi bu dunyodan bezib bo'lganday o'z ko'yida o'zi bilan ovora. Masha vokzalda mutlaqo o'zgarib qoldi, atrofqa hayajon bilan alanglaydi, Reyimboy og'a bilan Nurillaga umid va ishonch tuyg'ulari porlagan nigoh bilan boqadi, go'yo shulardan qaysi biri mening otam ekan deganday chiroyli barmoqlari asabiy o'ynab, hayajonini bosolmaydi.

Reyimboy og'aning cho'g'day qip-qizil, salobatlari "Opel"ida shahardagi baobro' mehmonxonaga yo'l oldik. Og'a rulda. Nurilla old o'rindiqda. Orqada biz - men, Irina, Masha. Manzilga yetgunga qadar Nurilla mehmonlarga Urgenchni tanishtirib bordi. Ular Nurillaning ta'riflarini jon qulog'i bilan tinglashadi, atrofqa hayajon bilan olazarak boqishadi.

Mehmonlarni "Jayhun" mehmonxonasiga, lyuks xonaga joylashtirdik. Xayrashayotib Mashadan ham yorug'lik chiqdi - judayam chiroysi jilmaydi:

- Xafa bo'lman, siz yaxshi odamsiz. Meni kechiring, - dedi.
 - G'alati bo'lib ketdim. Irina eshik kesakasiga suyanib:
 - Yozuvchi, nima deysan, uni topolarmikanman? - dedi ohista.
 - Men uning kaftini siqdim. Yuziga termuldum - nigohimiz to'qnashdi.
 - Albatta topasan, uni topish yo'lini o'zing yaxshi bilasan, viloyat harbiy komissariatidan so'roqlaysan. Falon yillari afg'onda bo'lgan deysan, vassalom, - deb uni yupatdim.
 - Bilaman, shunday qilaman.
 - Agar yordamim kerak bo'lsa qo'ng'iroq qil...
- Irinaga qo'l telefonim raqamini qoldirib xonadan chiqdim. Orqamdan ergashgan Nurilla:
- Shunday go'zal ayolni, anovi farishtaday qizini tashlab qayoqqa borardik, - deb to'ng'illadi.
 - Tez-tez yur. Qaerdagi gaplarni qo'y. Daryo bo'yiga boramizmi yo Aqchako'l sohilida dam olamizmi? - gapni cho'rt kesib mavzuni boshqa tomoniga burdim.
 - Bugun biznikida dam olamiz. Ertaga tushdan so'ng Aqchako'l bo'yiga chiqamiz. Hamma narsa, taxta-qayiq tayyorlab qo'yibmiz. Reyimboy akang ov miltig'i ham topib qo'yibdi. Xohlasang baliq ovlaysan, xohlasang o'rdak, qirg'ovul, tovushqon otasan. Tashqarida, katta yo'l chetida Reyimboy og'a turardi.
 - Nega buncha tez qaytdinglar? - dedi u ma'noli kulib.
 - E, manovi xalaqit berdi. Maqol bor-ku, haligi... O'zi ham yemaydi, birovga ham bermaydi, degan, - Nurilla o'zigagina xos holda yelka uchirib "xuxulab" kuldii.

Poton ko'priq orqali Amudaryoni kesib nargi sohil - Beruniyga o'tdik. Yo'l-yo'lakay ularga Irinaning taqdiri haqida bilganlarimni so'zlab berdim. Ikkovi ham jim bo'lib qolgandi.

Nurilla uyida ziyofat berdi... Ertasiga peshindan so'ng Aqchako'l sohiliga chiqdik.

Oh, naqadar kenglik. Ufqqa tutash sahro. Julg'in, saksovul, uyumtikonlar o'sib yotgan bepoyon qumlikning adog'i yo'q.

"Uazik" sahroni qoq yorib qum uyumida kuchanib oldinga intiladi. Sahroning o'rtaida nima qilarkanmiz, deb o'ylayman. Chorak soatlar yurib so'lga burildik. Mo'jizaga duch keldik. Shundoq qumtepalar orasida gavharday tovlanib, mildirab, mavj urgan ko'l paydo bo'ldi. Ko'l qirg'og'i quyuq qamishzor. Sohilda chayla tiklangan. Qozon osilgan, o'choq olov gurillab yonayapti. Dimoqni qitiqlab qovurilayotgan go'sht hidi taralmoqda. O'choq boshida uch kishi kuymalanib turibdi. Biri qozon tagiga o'tin tashlayapti, biri go'sht to'la qozonni uzun kapgir bilan qo'zg'ayapti, nariroqdagisi esa chovgumda choy qaynatayapti. "Uazik" to'xtadi. Mezbonlar bizga qarab tek qolishdi. Qo'liga kapgir ushlagani yugurgilab kelib tavoze bilan dastlab Nurillaga qo'l cho'zdi. So'ng men bilan Reyimboy og'aga iltifot ko'rsatdi.

- Dasturxonga marhamat, mehmonlar. Ayni vaqtida keldinglar. Qani, Nurilla og'a, mehmonlarni chaylaga boshlang. Chaylada dasturxon yozildi. Dastlab "Qoratov" shishalari dumaladi. Izidan meva-cheva, mineral suv idishlari keltirildi. Ulkan yog'och laganda qovurdoq tortildi. Qirg'ovul go'shti gazakbop bo'larkan, chanqagan ekanmizmi gap-gapga qovushib uch-og'ayni botirlar ikkita "Qoratov"ni dumalatdik. Bosh qizidi. Mana manzara, ana manzara. Cho'l. Qumni yorib chiqqan tikonlar to'dasi, saksovulzor, julg'inzor... Biqinimizda yastanib yotgan zumrad ko'l sahroning sirli yovvoyiligiga o'ziga xos bir joziba baxsh etib turganga o'xshardi. Ko'l tomondan salqin shamol esadi, qamishzor shovullaydi, qirg'oqqa tang'ilgan damlama qayiq suv sathida lapanglab sollanadi. Qum zarralari uchadi. Tepalikda qum to'zg'iydi. Kunbotarda barcha bulutlar botayotgan quyosh nurida tilladay tovlanadi, uzoq tikilib tursangiz ufq gurillab yonayotgan, ko'kdan sahroga olov parchalari tushayotganga o'xshaydi. Oqshomning qizg'ish shu'lasi ko'l sathida ham aks berib borliq sirli qirmiztus rangga cho'lg'angan.

Xushhol kayfiyatda qayiqqa tushdik. Yengil shamol qayiqni ko'l ichkarisiga surdi. Suv yuzida qalqib kichik to'lqinlar paydo bo'ladi. Yarimigacha suv bosgan qamishzor ichkarilaganimiz sayin siyraklashib bormoqda. Olisdagi ko'z ilg'ammas tepaliklarga to'sh urgan bepoyon ko'lga endi chiqib edik hamki, qamishzor burchida nimadir potillagandy bo'ldi. Nurilla ko'rsatkich barmog'in labiga tekkizib "jim" ishorasini qildi. Epchillik bilan qo'shog'izni olib o'qladi-da, miltiq milini o'sha yoqqa to'g'riladi. Lahzada nimadir qorayib ko'ringanday, so'ng o'zini qamishlar orasiga urganday bo'ldi. Nurilla tepkini bosdi, atrof gumburlab ketdi, bir gala o'rdak potirlab ko'kka uchdi, havoga porox hidi o'rлади. Qamishzor burchagida nimadir, suvda shaloplab turdi-da, jimb qoldi. Reyimboy og'a qayiqni ildamlik bilan o'sha tomonga haydadi. Suv sathi qip-qizil qon. Otilgan o'q sochma bo'lsa kerak, uchta o'rdak suv yuzida qonga bo'yalib yotibdi, ulardan biri hali jon taslim qilmagan - qanotlarini yozib jon uhmida tipirchilaydi.

Qamishlar orasini yorib ichkari kirishga, berkinishga urinadi. Yuragim uvishdi. Xushhollikdan hech vaqo qolmadni. Nurilla hech narsa bo'limgani kabi engashib o'qqa uchgan o'rdaklarni olib qayiqqa tashladi, men ularga qaramaslik uchun yuzimni burdim. O'q solingen xaltachani esa suvgaga tashlab yubordim. Nurilla angrayib turdi-da, so'ng bobillab berdi:

- Nega unday qilasan, aqling joyidami? Essiz, shuncha o'qni rasvo qilding-ku...
- Bo'ldi. Otmaysan, hech narsani otmaysan. Ov-pov qilmaysan.
- Seni deb ovga chiqdik. Hey, qiziq odam ekansan-ku... Ko'lda ov qilishning gashti bor-ku.
- Jim bo'l, og'ayni. Ko'p gapiraversang, bu safar miltig'ingdan ham ayrlasan, - dedim.

Qizg'ish yog'du og'ushidagi sohilga qaytdik. O'choqda o't gurillayapti. Uch erkak g'imirlab, yana nimalarnidir tayyorlashmoqda.

Oqshom cho'kish arafasida tabiatning talosh pallasiga xos bo'lgan go'zallikni ta'riflashga so'z ojiz, ayniqsa ko'l bo'yida, ayniqsa sahroda, ayniqsa chin do'star davrasida.

Sohilga oyoq qo'yishim hamon qo'l telefonim jiringladi. Ayol ovozi:

- Salom, Yozuvchi. Bu menman, Irina...
- Telefonda hiqillab yig'layapti. Yuragim uvishib ketdi.
- Nima bo'ldi? Uni topdingmi? Nega yig'laB=yapsan?..
- Qayoqda deysan. Yo'q. Harbiy komissariyatda, viloyatda ham ro'yxatda yo'q ekan. Kun bo'yil hamma tumanlarga so'rovnomal yuborishdi. Topilmadi.

Irina entikib gapirar, yig'idan o'zini tutolmasdi.

- Shunday bo'lishi ham mumkin ekanmi? Butun boshli odam yo'q bo'lib ketaveradimi?
- Ana, yo'q deyishayapti-ku. Endi nima qilaman? Yordam ber, Yozuvchi.
- Nima qil deysan? Hozir qaerdasan?
- Mehmonxonadaman. Rosa charchadim. Boshim qotib qoldi. Masha aza ochib yuragimni qon qilvordi. O'zing qaerda yuribsan? - Irina zorlanib gapirarB=di.
- Ko'ldaman. Ov qilayapman.
- Demak, kelolmas ekansan... Siqilib ketdim.

Irina uf tortdi. Ovozida allanechuk hazinlik, g'amgin o'tinch bor edi. U ayni dam men bilan bu kech negadir ko'rishishni xohlayotganini, begona yurtda yolg'izlik azobi jon-jonidan o'tib ketganligini his qildim.

- Agar sen xohlasang mashina yuborishim mumkin. Kechki ko'lni birga tomosha qilardik.
- Jon-jon deb borardim-u, Masha ko'nmaydi. To'shakka burkanib yotib oldi. Uning xarxashalari ham jonimdan to'ydirdi. Yo Xudo, ayt, Yozuvchi, nima qilay!.. Imkoning bo'lsa o'zing kelaql. Birga nonushta qilardik...
- Bo'pti, boraman, - dedim qat'iy. Shu tobda yuragim gupillab urar, Irinaning qarshisida bo'lib qolishni ich-ichimdan istayotgandim.

Keng sahro ham, bepoyon ko'l ham, keng dunyo ham menga tor bo'lib qoldi. Oqshom cho'kdi. Havoni qovurilayotgan baliq hidi tutdi. Chaylada yonboshlab yotdik. Atrofda xizmat qilib yurgan yigitlardan biri shisha chiroqning ichini ochib kerosin quydi.

So'ng pilikni yoqdi. Chayla yorishdi. Dasturxon dagi noz-ne'matlarni xira yog'du chulg'adi. Nurilla dasturxonda dumalab yotgan "Qoratov" dan birini olib og'zini ochdi. Uch piyola to'ldirib qo'yib, shishani bo'shatdi. Uchovimiz ham bir ko'tarishda oxirigacha oldik, so'ng piyolalarini to'nnarib qo'ydk.

- Demak, bormasang bo'lmaydi, shundaymi, - O'smoqchiladi Nurilla.
- Ha, shunday. U kutayapti-ku, tushun axir.
- Qanday qilib borasan? Men ham ichib olganman... Shunday dam olishning beliga tepma, - dedi norizo ohangda Reyimboy og'a...
- Va'da berdim. Katta yo'lgacha chiqarib qo'ysanglar bo'ldi.
- Qaytmaysanmi? Nima balo, o'sha yoqda qolmoqb=chimisan, - Nurilla taajjubini yashirib o'tirmadi.
- Bunisini bilmayman.
- Yaxshi, bior yolinli toparmiz. Ana, baliq ham tayyor bo'ldi, - Nurilla o'choqqa ishora qildi. Kattakon bir laganda qovurilgan baliq olib kelishdi. Nurilla o'choq boshida turgan yigitlardan biriga qichqirdi: - Hov, Kontuj, nega imillayapsan. Dasturxonning

ko'rki qani? Shishalardan olib kel. Bاليقning tagida qolsin. Tez-tez bo'l, hov, nega ovozing chiqmaydi. Ildam bo'l. Mehmon ketaman deyapti.

Xizmat qilayotganlardan biri uch shisha "Qoratov" olib kelib, dasturxonga qo'ydi.

- Qani, Kontuj, och buni. O'zingga ham to'ldirib quy. Qani, boshni qotirma, ol, o'zingga yaxshilab quy. Bizni o'ylama... Qani.

- Yoshulli, uzr, men ichmayman, - dedi yigit mulzam tortganday.

Sersavlat, uzun qo'llari keng yelkasiga mos, gavdasini biroz bukib o'tirgan yigit iljaydi. Moychiroqning nim yorug'ida keng, yapolqo yuzidan turtib chiqqan chakka suyagi, qirra burni, o'ziga yarashiqli qalin mo'ylabi, katta-katta o'tkir ko'zлari, o'siq qoshlari, qiyofasiga singigan jiddiylik kishini o'ziga tortardi.

- Kontuj, senga xizmat bor. Mehmon akang bilan Urgenchga o'tib kelasan, provang yoningdami? Reyimboy og'angni "Opeli"da. Tayyor tur.

Yigit ko'ksiga qo'lini qo'yib ta'zim qilganday bo'ldi. Biroq miq etmasdi. So'ng menga ijozatmi deganday yer ostidan Nurillaga qaradi.

- Kontuj, bir ozdan so'ng yo'lga chiqasan, achchiq qilib ko'k choy damla, - Reyimboy og'a mashina kalitini yigitga uzatdi. Kontuj deganlari o'rnidan turib, lapanglab o'choq tomon ketdi.

- Buning ismi kim? Kontuj deb chaqiraB=sizlarmi? - dedim Nurillaga.

- Ismini bilmayman. Hamma Kontuj deb chaqiradi. Ko'lda qorovul. Ammo qiyomat ovchi. Uchayotgan qushni uradi. Kontuj degan otga o'zi ham ko'nikib ketgan.

- Ishqilib es-hushi...

- Qo'rqma, kontuj bo'lsa ham juda epchil. Zo'r haydovchi. Mashina boshqarishda bunga teng kelaB=digani yo'q.

- Uni yaxshi tanisamni?

- To'g'risini aytsam, bu yerlarga qaerdan kelib qolganini bilmayman. Yozda ko'lda bo'ladi, qish kunlarida odamlarning uyida xizmatini qiladi. Har yerda yotib kun kechiradi. Lekin o'ta aqlli qurmag'ur, ichmaydi, chekmaydi.

- Qarindosh-urug'lari ham yo'qmi?

- Yo'q, shekilli. So'qqabosh. Qo'ysang-chi uni, qani, yaxshisi, baliqdan ol. Hozir "Uazik"da Kontuj ikkovingni biznikiga olib borishadi. So'ng "Opel"ga o'tirib, Urgenchga jo'naysan. U yoqda yotib qolma, kech bo'lsa ham uya qayt. Reyimboy og'ang bilan seni uyda kutamiz.

- Yaxshisi, hammamiz birga keta qolaylik...

- Qayoqqa?

- Senikiga, keyin Urgenchga.

- Jinnimisan, hov, shunday maishatni tashlab-a... Biz uya o'zimiz boramiz. Unga qadar sen ham Urgenchdan qaytasan. To'g'ri uya qayt. Biznikida tunaymiz. Qaytasanmi yoki... - Nurilla yana pixillab kului.

- Bo'pti, maydalashma. Kontujni chaqir... Bo'ldi, quyma, boshqa ichmayman.

Men o'rnimdan turdim. Haydovchi "Uazik"ni yondirdi. Kontuj ikkimiz mashinaga chiqdik.

Chodir tomli "Uazik" yo'lga tushdi. Chodirga o'rnatilgan oyna orqali ortga qaradim. Gurillab yonayotgan gulxan, sohildagi chayla tobora olislab borardi.

Nurillaning uya yetib kelgach, "Uazik" bizni qoldirib, iziga qaytib ketdi. Biz "Opel"ga o'tirib Urgenchga jo'nadik. Reyimboy og'aning ishonib kalitni topshirganicha bor ekan, Kontuj mashinani ustalik bilan boshqarar, ko'nglimdagini payqaganday yeldirib borardi. Urgenchga kirib kelganimizdagina miq etmay qovog'ini uyub kelayotgan Kontuj nihoyat tilga kirdi:

- Og'a qaerga boramiz?

- "Jayhun" mehmonxonasiga hayda.

Rang-barang nur taratib porlagan chiroqlar og'ushida naqadar jozibali ko'ringan Urgenchning qoq markazida joylashgan salobatlil mehmonxona yonida to'xtadik. Vujudimni hayajon chulg'ar, o'zimni atayin sipo, beparvo tutishga urinmay, mashinadan tushishga yuragim dosh bermasdi, agar shu tobda Kontuj: "Og'a, ketdik, uya qaytamiz", desa indamay ro'yxushlik berishim hech gap emas edi. Nega shunday holatga tushganimni o'zim ham bilmayman deng.

- Og'a, endi nima qilamiz?

- Nima qillardik, ketdik, mehmonxonaga kiramiz, - dedim bazo'r.

Oyoqlarim o'zimga bo'yusunmaydi. Vaqt o'tkazish uchun mehmonxona yonidagi do'konga bosh suqdim.

- Og'a, u-bu narsa olamizmi?

- Albatta, albatta olamiz. Quruq qo'l bilan bormaymiz-ku...

Kontuj aytgan "u-bu narsa" ikkita yelim xaltaga joylandi.

- Og'a, menga bering, men ko'tara qolay.

- Ixtiyoring.

Ichkariga kirdik. Marmar yotqizilgan oynavand fayedan o'tib, lift orqali to'rtinchli qavatga ko'tarildik. Uzun yo'lak bo'ylab borayapman. Ortimda Kontuj. Yelim xaltalarini ikki qo'lting'iqa qisib olgan. Beeparvo. Dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi. Buncha do'killatib qadam bosmasa.

Va, nihoyat mana, o'sha xona eshibi. Ikkovimiz ham to'xtab bir lahma jum qoldik. Kontuj ishshayib turibdi. Eshikni taqillatdim. Ichkaridan qadam tovushi eshitilib, ostonada Masha paydo bo'ldi.

- Kiring, sizni oyim kutayapti.

U sheringma qiziqsinib qaradi.

Kiraverishdagi xonada bir-biriga qarshi qo'yilgan aynan o'xshash ikkita divan hamda yumshoq o'rindiq, bir qanoti qiya ochilgan deraza yonida bayramona, did bilan bezatilgan stol. Chindan ham kutayotgan ekan, degan o'y o'tdi xayolimdan. Kontuj esa poshnasi loy, chang bosgan qiyshiq poyabzalini ham yechmasdan tasur-tusur qilib kirib keldi-da, xona o'rtasida qaqqayib turib qoldi.

- Oyim ichkari xonada, hozir chiqadi. Qani stolga marhamat, - Masha qirq yillik qadrondB=larday bizni o'ziga yaqin olib tabassum qildi.

Ichkari xonadan egniga barqut xalat tashlab Irina chiqib keldi. Oltin sochlari yelkasida shovullaydi. Moviy ko'zлari chaqnab-

This is not registered version of TotalDocConverter
charaqchi. Tashrif chay olib chalda keling!

- Yozuvchi amaki, bugun oyimning tug'ilgan kuni. Ajoyib kunda g'aroyib sayohat, - Mashada kechagi tundlik, qaysarlik va betgachoparlikdan asar ham qolmagandi.

Men Irinaga qaradim. U tuyqus joyida to'xtab orqaga tisraldi. Shu paytda serrayib turgan Kontujning qo'lidagi ikkala yelimxalta ham yerga tushib ketdi, shishalar chil-chil sindi. Bu g'aroyib manzara lahzada sodir bo'ldi. Men karaxt bo'lib qoldim. Masha talmovsiraganicha devorga suyanib dam oyisi, dam menga, dam Kontujga qaraydi. Kontuj ihradi, yuzi oqarib, keyin lablari pirpirab nimadir demoqchi bo'ldi, gapirolmadi. Men nima bo'layotganini anglay olmasdim, Kontuj tizzalab o'tirib, beso'naqay qo'llari bilan boshini changallab oldi. Irina tik turgan ko'yи telbavor, aftadolol qiyofada Kontujga tikilib turdi-da, xasta, ihroq ovozda dedi:

- Roma, bu senmisan?... Roma, bu senmisan?!

Keyin uvvos tortib yig'lab yubordi.